

Sharifova Adiba Farxod qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi.

Ilmiy rahbari: **Saidkulov Nuriddin Akramkulovich**

MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALANISHDA TAYLIM-TARBIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya: Har qanday tahdidlardan, ayniqsa mafkuraviy zo‘ravonliklardan himoyalanişda ta‘lim-tarbiya najot vazifasini o‘tashi ayni haqiqat ekanligi aniq dalillar yordamida ochib berilgan. Fundamentalizmning nima ekanligi qachondan boshlab ishlatilib kelinishi haqidagi ma‘lumotlar ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Mafkuraviy poligonlar, iqtisodiy integratsiyalashuv, fundamentalizm, ekstremizm, terrorizm, jaholat, ma‘rifat.

Аннотация. С помощью наглядных доказательств выявлено, что образование играет спасительную роль в защите от любых угроз, особенно от идеологического насилия. Также включена информация о том, что такое фундаментализм и когда он использовался.

Ключевые слова: Идеологические полигоны, экономическая интеграция, фундаментализм, экстремизм, терроризм, невежество, просвещение.

Abstract. It has been revealed with the help of clear evidence that education plays a role of salvation in protection from any threats, especially from ideological violence. Information about what fundamentalism is and when it has been used is also included.

Key Words: Ideological polygons, economic integration, fundamentalism, extremism, terrorism, ignorance, enlightenment.

Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyot sari ildam borayotgan hozirgi sharoitda ham jahondagi ma‘lum bir siyosiy kuchlar, mafkuraviy poligonlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo‘lgan bu mintaqani o‘z manfaatlari doirasiga tortish harakatlaridan to‘xtagani yo‘q. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun ta‘sir va bosim o‘tkazishning barcha shakllarini qo‘llamoqdalar. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayoniga to‘sqinlik qilish, ularda o‘zaro bir-birlaridan norozilik kayfiyatini o‘yg‘otish kabi mafkuraviy ta‘sir o‘tkazish holatlari sodir bo‘layotganligini ta‘kidlash mumkin.

Bu maqsadda mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma‘rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do‘st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o‘rtasiga nizo solish, keskinlik o‘choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g‘oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma‘naviyatida islom dinining mustahkam o‘rin egallaganidan foydalanib, ularga islomiy “saboq berish”, islomni qayta tiklash bayrog‘i ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo‘poruvchilik harakatlari kuchaydi. Ma‘lumki, “fundamentalizm”, “ekstremizm”, “terrorizm” kabi tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan va ularga zid bo‘lgan g‘oyalar hamda ular asosidagi harakatlarni ifodalaydi. Qandaydir bir yo‘nalishni buzib talqin etgan holda siyosiy maqsad qo‘yuvchi harakat ekstremizmga olib keladi. Ekstremizm qanday nomlangan yoki qanday ko‘rinishga ega bo‘lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarini shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat. Xuddi shunday “fundamentalizm”, “terrorizm” kabi so‘zlar

ham tom ma'noda hokimiyat yoki biror bir g'arazli maqsadlar uchun kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir. Masalan, "fundamentalizm" atamasi aslida, xristian dini bilan bog'liq holda shakllangan. Uning birinchi bor rasmiy qo'llanishi 1908-yili AQShning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan "Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi"ga (The Conference on Cristian Fundamentalism) tegishli bo'lib, quyidagicha asosiy

	5	aqidani	ifodalaydi:				
-	Iisusning	bokira	ayoldan	dunyoga	kelgani;		
-	uning	insoniyat	gunohlarini	oqlash	uchun	qurbon	bo'lgani;
-		jisman		qayta		tirilishi;	
-	yer	yuziga	jismonan	ikkinchi	bor	kelishi;	
-	kitobning	muqaddasligi	va uni	dastlabki	sof	holiga	qaytarish.

Aslida "fundamentalizm" va "ekstremizm" g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad - dinning qadriyatlarini qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlarda tuzatib bo'lmas fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan, tarix sahifasida qolib ketgan xalifalikni tiklash g'oyasiga ham zo'r berilmoqda. Ana shu yo'lda islom fundamentalizmi vakillari, hatto diniy e'tiqod darajasida, inson qalbi ma'naviy boyligining ajralmas qismi bo'lgan milliy o'ziga xoslikni "qurbon" qilish g'oyasidan ham toymayptilar.

Aynan ana shu xatti harakatlar bugungi kunda o'z obro'sidan butunlay mahrum bo'lgan marksizm-leninizm ta'limotini eslatib turadi. Masalan, Rossiyada marksistlarning eng jangari oqimi-bolsheviklar, millati va irqidan qat'iy nazar, dunyoda yashayotgan barcha xalqlarni birlashtirish g'oyalarini ilgari surib, terror yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan edilar. Ularning asosiy fojealaridan biri ham milliy omilning va tadrijiylikning ahamiyatini tan olmaganlarida edi. Shuning uchun ham ular tarixda zo'ravon ekstremistik g'oyalar sohibi sifatida nom qoldirdilar. Bugun diniy ekstremizm va fundamentalizm tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo'poruvchilik va terroristik harakatlar ham ana shunday maqsad, yo'l va uslublarga tayanmoqda.

Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, din-u diyonatimizni muxtasar ifodalab aytish mumkinki, Oллоh bizning qalbimizda, yuragimizda".

Umuman Markaziy Osiyo xalqlari mustahkam do'stligining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, mintaqa tub xalqlarining ma'naviy ildizlari bir, ruhi, turmush tarzi yaqin, ular ana shu boy manbadan birdek bahra oladilar. Shu ma'noda ham ular birligini mustaxkamlash umummintaqaviy ma'naviy yuksalishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib turaveradi. Bu jarayonga qarshi qaratilgan har qanday mafkuraviy ta'sir yoki terroristik harakatlar umummintaqaviy qarshilikka uchraydi va barbod bo'ladi.

Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, jamiyat taraqqiyotini to'g'ri ideologik tushunish imkoniyati shunchalik keng bo'ladi. Fikriy kurash ideologik baholar va prognozlarining sayqallashuviga hamda ma'no va mazmun jihatidan boyishiga xizmat qiladigan yangidan-angi g'oyalarning paydo bo'lishiga, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining umumiy tarzda ro'yobga chiqishiga sharoit yaratadi, u yoki bu shakldagi total mafkuraviy nazoratning oldini oladi.

Mafkuraviy plyuralizm sharoitida xilma xil qarash, intilish, yondashuvga ega bo'lgan va turli mafkuraviy pozitsiyada turuvchi kuchlarning jamiyat va millat manfaatlarini yo'lida hamkorlik qilishi, ezgu maqsadlarni ko'zlab, hamjihat faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda globallashuv sharoitida davlatlararo aloqalar ham mafkuraviy jarayonlar rivojiga o'ziga xos ta'sir o'tkazayotganini ham alohida ta'kidlash zarur. Bu, jumladan, Yer yuzining turli nuqtalarida mafkuraviy plyuralizmning shakllanish imkoniyatlari va yo'llarining kengayganida ham o'z ifodasini topmoqda. Chunonchi, globallashuv sharoitida milliy mahdudlikda yashash bo'lmasligi, aksariyat mamlakatlarda demokratik qadriyatlar, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm hukmronligi bunday yo'ldan uzoq bo'lgan davlatlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Bunda bugungi kunda iqtisodiy tasir choralarini qo'llash, xalqaro maydonda siyosiy tazyiq o'tkazish, siyosiy partiyalar shakllanishiga ko'maklashish, yangi tipda fikrlovchi siyosiy elita

shakllanishiga yordam berish, mavjud oppozitsiyani qo'llab-quvvatlash yoki uning shakllanishiga yordam berish kabi usullardan foydalanilayotganini ko'rish mumkin.

Davlatlararo munosabatlarning muayan jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga tasiri o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Yangi asr boshida ayrim davlatlarda amalga oshirilgan rangli inqiloblar globallashuv sharoitida bir davlat(lar)ning boshqa mamlakat(lar)dagi siyosiy-g'oyaviy jarayonlarga salbiy ta'sirining yorqin misoli bo'la oladi. Demokratiyani siljitish bayrog'i ostida amalga oshirilgan bunday harakatlar g'arazli geostrategik maqsadlar yo'lida mamlakatlarning ichiki ishlariga qo'pol ravishda aralashishni amalda namoyish etdi. Shunday ekan, bunday hodisalarning oldini olish mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatlar uchun yaqin istiqbolda ham o'z ahamiyatini saqlab qolishini alohida qayd etish lozim.

Yana shuni gapimning isboti tariqasida ta'kidlab o'tish joizki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat deb bejiz aytilmagan. Buning tub zamirida yotgan ma'no ham aslida bugungi kunda kelib chiqib turgan barcha qaltis muammolarning yechimidir desam yanglishmagan bo'laman. Buyuk Xitoy devorining ham qurilishidagi faktlarni eslab o'tish zarar qilmasdi. Bu devor ko'chmanchi xunn qabilasining xujumlaridan himoyalanih maqsadida 37 yil davomida 2milliondan ortiq inson ishtirokida qurilib, bu davr orasida vafot etgan barcha shu devor ichiga dafn etilgani ham hech birimizga sir emas. Unga qanch mablag' sarflanganiniku aytmasa ham bo'ladi. Xo'sh buning foydasi bo'ldimi? Ha, chetdan hech bir qabila, inson devordan oshib o'ta olmasdi. Bunga hojat ham qolmagandi aslida. Negaki vatan xoinlari tomonidan darvozalar ochib berilgan edi-da. Tarixchilarning ajoyib gapi bor, agarda Xitoy davlati shuncha vaqt va pulni devorga emas, ta'lim sohasiga kiritib vatanparvarlikdan dars o'tganda edi hech bir bosqinchi yaqin yo'lamag bo'lardi.

Tarix ko'plab davlatlar o'z hududini, ta'sir doirasini muntazam kengaytirishga intilishi, mamlakat boshliqlari va siyosiy kuchlarning butun dunyoga hukmronlik qilishdek xayoliy orzulari natijasida o'zining ichki imkoniyatlarini sarflab bo'lib, halokatga yuz tutganini ko'rsatadi. Bu hozirgi davrda dunyoga hukmronlik qilishga intilayotgan ayrim davlatlar o'zlarining gegemonistik siyosatini davom ettiradigan bo'lsalar ularning yaqin istiqboldagi taqdiri ayanchli bo'lishi mumkinligi haqidagi xulosani chiqarish imkonini beradi.